

AKMAL TURSUNOV

KITOBIM



BIRINCHIK

BURGUTQOYA



0'Z2
91

SHE'RLAR

**Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart**

ilgarigi berilmalar miqdori _____

821.512.1337 731	Turstanov A. (Almas)
100	100

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

AKMAL TURSUNOV

BURGUTQOYA

She'rlar

She'riyal
mumkin
gizning o
barmoqlarning
ruhingiz ilohiy
qoldan bir par
cha o't-oov, yoniq
ijod girdobida qolib ketse
maydi.



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

BURGUTQOYA

3

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
JIOD "JAMOAT-LONG" KUTUBXONA MARKAZI

Nashr uchun mas'ul:

Sirojiddin SAYYID

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi

Mas'ul muharrirlar:

Qo'chqor Norqobil, Jontemir Toshtemirov

Kitobda yosh ijodkor A. Tursunovning olamga hayrat va o'zgacha, shoirgagina xos zehniyat bilan qarab, o'z kechin-malarini jilovlab o'tirmay bitganlari, yurak tubidan to'kilgan satrlarini o'qiymiz. She'rlarida muallif inson, uning ko'ngilbekatlari, hayot manzillari, umr yo'lida orttirgan xulosalari, tabiat va undagi o'z olamiga ega mavjudotlar bilan inson munosabati kabi mavzularga murojaat qiladi. She'rlarning barchasi ham kitobxonlar qalbidagi pokiza hislarga, oydin tilaklarga, unutilmas xotiralarga teginib o'tishi shubhasiz.

*Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining
Zomin seminarida nashrga tavsiya qilinib, "Ijad" jamoat
fondi tomonidan moliyalashtirilgan.*

ISBN 978-9943-6472-9-9



© A. Tursunov, 2020
© "Adabiyot", 2020

O'ZINGIZGA ISHONING!

She'r yozishni hech kim o'rgatolmaydi, shu paytgacha, men shoirlikni falon ustozdan o'zgandim, degan gapni eshitmadim. She'r yurakning hayrati, zavqi yoki nafratidan tug'i-ladi – yuragining tili gapira oladiganlar shoir bo'lishadi. Buni his qilgan katta shoirlar shogirdiga umid bilan boqishadi, ishonishadi – shogirdning yuragi gapira olishini anglashadi.

Daryoning narigi qirg'og'iga suzib o'tmoq-chi bo'lgan inson umumsuzish qoidasiga amal qilishi mumkin, lekin u baribir o'z qalbi urishi, o'ziga xos xatti-harakat bilan suzadi, agar aynan o'z ustoziga xos-u mos harakat qila-man desa, qirg'oqqa yetolmasligi mumkin. Siz daryoga tushdingiz, suzib o'tish yo g'arq bo'lish o'zingizga bog'liq.

She'riyat ham shunday, ustoz yo'li va o'gitini obdon his qilib, qo'lga qalam olmog'ingiz mumkin, lekin ustozning emas, o'z yuraginingzning ovozini eshitmasangiz, qalam tutgan barmoqlaringizga yuragingiz kuch bermasa, ruhingiz ilohiylik sari o'rlab, u yoqdan bir parcha o't-olov, yoniq ruh olib qaytmasa bekor, siz ijod girdobida qolib ketasiz. Sizdan shoir chiq-maydi.

Hamma yaxshi she'rlar yozib bo'lingan, deydi daho shoir. Ha-da, Navoiy o'z nafasi bi-

lan she'riyat bo'stonini gul-u chamanga to'ldir-gani haqiqat. Lekin ulug' Hazratdan keyin ham qanchalab shoir-u davronlar bu maydonda o'z iqtidori mezonida nom qoldirmadi deysiz. Ularning bari o'ziga xos ruh va qalb sozi, o'ziga mos ovozi borligi uchun ham ijod dunyosidan joy oldilar.

Yosh shoir Akmal Tursunov she'r yo'lida ijodkor faqat o'ziga ishonishi, she'r yo'lini o'z qismat yo'li bilan bog'lay olganlar, ijod mashaqqatini taqdirning hukmi deb his qilganlar chin shoir bo'lishini anglab qalam tebratayotganiga ishongim keladi. Uning she'rlarida keskir jozibba, kutilmagan burilish, quyilib kelgan ohang, zalvorli mantiq alohida bo'rtib, ko'rinish qolmaydi – bu jihatlar bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan, ayniqsa, ohang va mantiq uyg'unligi she'rlariga harorat baxshida etib turadi.

Akmalbek, men Sizga ishondim! Siz o'zingizga ishoning!

Qo'chqor NORQOBIL,

Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir.

HAYKEL RONIDA

* * *

Zavqlan, umrning har lahzalaridan,
 Qara, ko'm-ko'k maysa,
 Qara, ko'm-ko'k suv.
 G'am chekma taqdirning larzalaridan,
 G'ashlik tuyg'usini yuragingdan quv!

Chunki yo'rgakdagan uni qoyalar,
 Ildam chopaverin
 Va qilma parvo,
 Shamol shashting kessa, tog' yo'ling to'ssa.
 Senga yo'liqishdan hayiqsin g'avg'o,
 Ikki qadam yiroq yursin g'am-g'ussa!

Sen oddiy turishda mag'rur ko'z tashla,
 Kaloming shukrona bo'lzin tun-u kun.
 Otang o'giti bo'l...
 Va yana saqla
 Do'pping sitilsa ham iymonni butun!

HOZIRLANISH

Men yo'lga otlandim.

Safarxaltam taxt.

O'zim bilan oldim – iyemon va umid.

Boshqasi og'ir yuk: mo'l yurish kerak,
(To'g'risi, lash-lushdan o'zi yurak xit!)

Bir fursat tursam-da taraddudlanib,
Ketar jafosi yo'q, dilda g'ashlik yo'q.
Tashvishlar, osilmang endi g'udranib,
Menga yuragimdan o'zga boshliq yo'q.

Anov ufqqa tutash tog'lar karvoni

Cho'kib o'rakchini tutib turibdi.

Buncha og'ir ekan yuki havoni –

Osmonni ko'tarib ezildi kiftim.

Qadamni kattaroq olmoq shart faqat,

Kerakmas tep-tekis aylana yo'llar.

Tik so'qmoq xatarli bo'lsa-da, rohat,

Azming qat'iy ekan, Xudo ham qo'llar.

Bilaman, g'urbatda bu shirin jonim,

Zaqqumlar qolmagay balki ichmagan.

Zahmatda toblangan anglar dunyoni,

Haq yo'li hech qachon oson kechmagan!

HAYVONOT BOG'IDA

Burgut – kengliklarning farzandi, uni
Tomosha qilmoq hayf qafasga solib.
Bu tog'ni zanjirlash kabi kulguli,
Ayanchdir yo'rg'ani bichish misoli.

Chunki yo'rgaklagan uni qoyalari,
Quyosh elburutdan uni emizgan.
Osmonning kaftida tetapoyalab,
Bulutlar kiftida bulutday suzgan.

Shu sabab u yerga begonaday qush,
Simyog'och ustida qo'yolmaydi in.
Maqsad emas unga vositadir go'sht,
Xonaki burgutni kim ko'rmish, ayting.

Kimga to'qay maskan,
Kimga dasht yurtdir.
Nazari pastlarga tog'lar ham – devor.
Erki o'zda ekan – burgut burgutdir,
Qafasda tovuqdan nima farqi bor?!

Qo'ynimdag'i tugun – mushtday yuragim
Lazzat topa bilar ranj-u sitandan.
Osmon uch paxsa uy shiftiday yaqin,
Onam solgan qurtlar hali kissamda.

* * *

Oshiq odam uzolmaydi gul,
Boqib bahra oladi, xolos.
Qo'ldan kelgan yomon ishi shul –
chertadi tor, yirtadi qog'oz!

(To'g'risi lash-lushdan o'ziga urak xit!)

Oshiq odam buloq suviga
Oyog'ini chaymaydi hecham.
Daryoni nazr etib so'figa,
Oftobada yuz yuvar – tejab.

Oshiq odam sunmaydi bo'yin,
Dunyosiga siltab ketar qo'l.
Ma'shuqiga oshiqqan ko'yil
Cho'bin otga minib, olar yo'l...

Osmanni ko'tarib ezildi kittim.

Kimsa fo'dsa mas'kav

Qadamni kattarni qurashishni qurashishni
Ketokabsi tez qurashishni
Tik qurashishni
Azmonni qurashishni

Bilaman, g'urbatda bu shirin jonim,
Zaqqumlar qolmagay balki ichmagan.
Zahmatda toblangan anglar dunyonil
Haq yo'lli hech qachon oson kechmagan!

YO'LOVCHI

Olislarni etdim azm-u ixtiyor,
 So'ng bedov tulpor day yo'rg'alab ketdim.
 Og'ganim to'g'ri goh yo'limdan xiyol,
 Ammo o'zimga va so'zga rost edim.

Tasvirlar o'zgardi yo'l yurgan sari
 Mingta qiyofada jilvalandi oy:
 Suzildi dam zarrin libosda harir,
 Dam esa bo'g'riqqan, kinli, bejilo.

Ufq esa chorlaydi tushaversa kech,
 Imlaydi xinoli qo'llari bilan.
 Ko'nglim bo'sh, yuzidan o'tolmayman hech,
 Bormaguncha qo'ymas o'zi savil ham.

Tag'in safar dilda qo'zg'ar ishtiyoq,
 Tosh-tuproq ko'chada unmaydi yo'lim.
 Tentib hikmat izlam, hurlik, haq, ziyo;
 (Marjon it bo'ynida zeb emas – zulm!)

Qo'ynimdag'i tugun – mushtday yuragim
 Lazzat topa bilar ranj-u sitamdan.
 Osmon uch paxsa uy shiftiday yaqin,
 Onam solgan qurtlar hali kissamda.

Ona, ishon menga, yer – bu dumaloq,
Bitta aylanaman, qaytib kelaman.
Silama, boshdagi g'urramas – saboq,
Yoriq ham yorug'lik, bo'ldi, silama!

Sargardon qismatni tilangan o'zim,
Ko'lmakka qamolmay daryo dilimni.
Oqdim, oqaverdim ancha shu yo'sin,
Ruh topdim, oqizoq qilib gilimni.

Nechun bu yo'lchida qo'nim hissi yo'q,
Kimxobdan chorig'i azizroq buncha?
Unga beg'am yashash malol, og'ir yuk,
Umr – yo'ldan tarkib topgan tushuncha.

Yo'lchiga yo'l bergen, Rabbano, qo'lla,
Musofirning Haqqa oshno jon-dili.
Manzil so'ramadim, sinovlar yo'lla,
Menga ayon, axir, so'nggi manzilim!

LOLA

Bir azobda toqqa chiqsam bahorda,
Qiqirlab turibdi tog'ning lolasi.
Lola, meni yerga urma bekorga,
Anoyimas menam tog'ning bolasi!

Egilganim to'g'ri sening poyingga,
Chiroying deb bo'ldim men rosa xarob.
Shu jabrlar haqqi, qizil jomingga,
Lolajon, quyib ber bir kosa sharob.

Sipqorib tin olsin bu halak jonim
Yaproq-kokilingni labimga bosay.
Qizil bo'yanganing, bu - jigar qonim,
Yuzim rangini ham olding-ku toza!

Tiz cho'kib o'paman yaprog'ing, mazza,
Sen yal-yal ochilgan, men tili duduq.
Bir silkinib qo'ysang, jahonim larza,
Bir siypalab qo'ysang, jonim tasadduq!

Qo'lim tekkizmayman, bo'lma xavotir,
Sen qiqirlab tursang, qandoq yulaman?
Har bahor qoshingda bo'laman hozir,
O'lsam, huzuringga kelib o'laman!

Quyosh yiltillaydi: siniqqan, ma'yus -
Jilmayganday benor o'lim oldidani

Ona, ishon menga
Bitta aylanaman,

ХОНҚИЗИ

Xonqizi, kel, xonga kuyov bo'layin,
Sen bilan yashnasin bog'im, xonqizi!
Faqat qaliningni qandoq to'layin,
Bisotim yetmaydi chog'i, xonqizi?!

Ko'Imakka qam'lmay daryo dilimni
Derlar, kambag'alni ori o'ldirar,
Onam der: shashtingdan qaytgin, jon qo'zim!
Chorig'imni sudrab borsam, kuldilar,
Zar libos sevgini bo'g'ar, xonqizi!

Qop-qora xollaring biram yarashgan,
Boqsam ko'nglim bayram, egning qip-qizil.
Noshudman topmoqqa tengin adashgan,
Sen kim-u, men kimman o'zi, xonqizi!

Musofirming Haqqa oshno jon-dili,
Siylov malikaga yarashar, axir,
Men ham Yaratganning yakka, yolg'izi.
Bir marta kaftimga qo'nib suyuntir,
Qo'limni qaytarma faqat, xonqizi!

Xonqizi, kel, xonga kuyov bo'layin...

Bugun so'nggi kunin yashamoqda kuz,
 Vidolashur barglar to'ldi hovlida.
 Yiltillaydi quyosh siniqqan, ma'yus –
 Bemor jilmayganday o'lim oldidan!

Daraxt so'ppayadi qovushtirib qo'l,
 Ship-shiydam qolganin tuyqus his qilib.
 Kuz der: "Yaproqlaring to'kdim, rozi bo'l!
 Qiynab qo'ymadimmi seni, ishqilib?"

Og'och shoxin silkib qo'yar zo'rg'atdan:
 "Qo'ysang-chi, qismatda borini ko'rdirim.
 Gullab, meva tugdim, ha endi, attang,
 Fursat yetgan ekan, to'kilaman jim".

Mingdan-ming rozimiz sendan, tiyramoh,
 To'ldirding hammani etak-qo'njini.
 Bo'lsa, shuncha bo'lar, axir, siylamoq,
 Hech fasl saxiymas rosti bunchalik!

Kuzginam, bayotim tingla, qizgina,
 Yomg'irlaring bosdi g'uborlarimni.
 Mo'yqalamim yo'q-da seni chizgani,
 Xazondan dilnomaga yubormadingmi?

Ha, endi, nachora, tugamoqda kuz,
 Bu kun ham xotira bo'lib qoldi-da.
 Quyosh yiltillaydi: siniqqan, ma'yus –
 Jilmayganday bemor o'lim oldidan!

SHIFOXONADA

Jang ko'r may yarador bo'lmoqlik og'ir,
Xayrixoh qo'llardan, ohki, tig' tegdi.
Bu, mayli, onamning ezgin nigohi,
Tig'dan-da tanamga ko'p qattiq tegdi.

Onajon, qayg'urma,
Bu qadar sokin
seni va tog'larni ketmasman tashlab.
Bir bo'ron ko'targum hech qursa, toki
G'ubor bo'lib borgum – men toqqa tashna!

OSHIQ

Tomirimda jo'shqin qonlar gupurdi,
 Yashashga muhabbat, ishqqa tavoze.
 Oshiqlar xokini ko'zimga surtdim,
 Zaminiy hislarim bosdi tarozi.

Tashvishga qo'l siltang!
 Bari jo'n, odmi:
 ketmonmas, rubobni tutqazing menga.
 Eng baland pardada kuylay hayotni:
 har on Parvardigor tuhfasi menga.

Ranj-u sitamlarga zarra o'rin yo'q,
 Qalbimda doira sadosi yangrar.
 Ko'kni davra olib aylanadi ruh,
 Yer tepinib o'ynar har bir hujayram.

Ko'nglim, olamga boq, naqadar ko'r kam,
 Haqning tajallisi mo'r-u maysada.
 O'zingdan balandroq yashashni o'rgan,
 Go'zallik topa bil hamma narsadan.


Do'stim, kel, eskitdan borki bir jumla -
 Hayot sharobini baham ko'r degan.
 Yashashni bosh-oyoq jumboqqa ko'mma,
 Haqiqat aks etar kosa sirtida.

Sinovlar achchig'i tilimda novvot
Haqqa zohidona ishqimni kuylam.
Yalangoyoq qolsam hamki, umrbod
Oshiqlik to'nini egnimdan qo'yam!

UYDAN QAYTISH

Osmon teshildimi: yomg'ir tun bo'yi
Biram ezib yog'di, ezg'ilab yog'di.
Tarnov tongga dovr qildi xirgoyi,
Onamning allasi kabi xush yoqdi.

Eshigi g'ichirlab ota uyimning
Chiqsam: qo'llarimni qo'ygisi yo'qday.
Qushlar nimanidir so'ylar kuyinib,
Tog'lar kesib chiqar yo'limni: "To'xta!"



* * *

Bo'lganim shu – tog'likman,

Ulg'ayganman tik turib.

Yaldoqlanish mengamas,

Jon koyitmang uqtirib.

Bo'lganim shu – to'damas,

Yolg'izlikni xushlayman.

Kiyik bilan o't chaynab,

Burgut bilan qishlayman.

Bo'lganim shu – dabdaba,

Hashamatga toqat yo'q.

Menga o'rdaksho'rva¹dan

O'tadigan ovqat yo'q.

Menga dunyo sahna deb,

Tirkamangiz rol aslo.

Bo'ri sirkda o'ynamas,

O'ynasa hamki arslon.

Omadi gap, olomon,

Tomoshani kutmangiz.

Ko'chki bosadi, toshni

Tog' tomonga otmangiz!

Bo'lganim shu – tog'likman...

¹ O'rdaksho'rva – suvgaga bo'ktirilgan nom.



BAHOR YOMG'IRI

Osmonda to'planib bir to'da bulut
Yerni qamal qildi. O'qlar yog'dirdi.
Quyosh madadidan endi yo'q umid:
Uni o'z tomonga yovlar og'dirdi.

Qochgan qochib qoldi pana joy topib,
Daraxtlar ko'ksini o'qqa tutdilar.
Kurtaklar jon taslim etdi yer o'pib,
Novdadan quladi, yomon otdilar.

Mendaylar pastlatib qo'yib qo'shiqni,
Derazadan boqib saqlar jonini.
Yovga tik borganlar ko'chaga chiqdi
O'qqa qalqon qilib soyabonini.

Yov qochdi – bulutlar to'zg'idi birdan,
Tashqari otildim mardligim tutib.
Quyosh ham topilib qoldi qay go'r dan,
Yovning chekinishin turganday kutib.

... Tabiat jimgina nafas rostlaydi
Yig'lab yengil tortgan odamday sokin.
Shabboda yo'lini birov to'smaydi,
Yaproqlar bosh irg'ab qo'yadi sekin.

Menkim, tabiatning jangchisi, oldi,
Deyman bahor bo'lsa, gullar ko'paysa.
Faqat shu... xayoldan hech ketmay qoldi
Cho'milib badanin artmagan maysa!

Qalbim ishqqa ochiq.

Aytganim – qo'shiq.

Oshiqlar ko'z yoshin ichib sarxushman.

Chikora telbaga qonun-u to'siq,

Qanotsiz uchishga ishongan qushman!

Qalbim ishqqa ochiq.

Yaratganni men

ko'kdan qidirmadim boshqalar kabi.

Izladim men faqat o'zimni, chunki

Xudoyim ko'nglimda muqim yashadi.

Qalbim ishqqa ochiq –

Darvozaday lang,

Telbavor behudlik, quvonch unda jo!

Meni esi og'ib qoldi deb kulmang,

Haq hukmi – sevmoqni keltirdim bajo!

Qalbim ishqqa ochiq.

Bayram – har kunim!

Shovqinmas, kuy uchun yaralgan nayman.

Menga bandasining gapi bir tiyin,

Egamga erkalik qilib yashayman!

BAHOR * * *

Qo'shga soldi dunyo bizni, do'st!

Egar otliqlarga buyurdi.

Burch tuyg'usi ochirmadi ko'z,

Istak imkonsizday tuyuldi...

Bolalikda qoldi hislarim...

Sevgi qoldi xotira bo'lib.

Dunyolarni buzmoq istadim,

Ishqqa ayro tushganda yo'lim.

Bilsam... hijron zorlarga nasib,

Visol zo'r-u zarlarga ekan.

Taqdir yorni yotga tutqazib,

Meni qildi g'amlarga ega!

Ohlarimdan ko'kardi osmon,

Dunyolarga sig'madim hecham.

Unutishga unutib har tong,

Eslayverdim yana har kecha!

Aybim – sevgim, ishqim – gunohim,

O'z yog'imga qovurdi bu dard.

Silab-siypab ko'ksimni gohi,

G'ijimlaydi gohida battar!

Bir nuqtada to'xtamas hayot,

Dard umrga nihoya emas.

Mag'lub ketmoq naqadar isnod,

O'tgan umrim kifoya emas!

Shunda aql ko'tardi-yu bosh,

Hayotni o'z izmiga soldi,

G'ururimni yuzimga soldi,

...Tuyg'ularim tortdilar yuvosh.

Zamon oqqan tomonga oqdim,

Ko'pga kelgan to'y, dedim, tashvish.

Izlab-izlab keyin ish topdim,

Ko'ngil emas, qozon to'lar ish...

Endi yashash – burch, istak emas,

Qo'sh tortishdir bizga, qo'sh tortish!

Muhabbat qalbimni chimchilab qo'ydi,
Ko'zimga sanchilib qoldi nigohing.
Zo'raydi dard – ko'ksim jim silab qo'ydim,
Meni ado qilib qo'yding-ku, Mohim!

Qayga yonboshlasam o'rnikm chaqadi,
Oy esa yaltirar sariq chaqaday,
Necha esim kirib, esim chiqadi
Tonggacha jinniday tentiyman gohi!

Kelsang, bahorlar ham chopib kelardi,
Maysalar izingni yopib kelardi.
Baxt o'zi emaklab topib kelardi,
Topishgan ko'zlarga bo'lay deb shohid!

To'y qilsak, o'tkazib meni so'riga,
Qaldirg'och men uchun qo'ling so'ragay,
Burugutni aytaman kuyovjo'ruga,
Kelindugonaga biram mos ohu!

Bulbullar navbatda turib kuylaydi,
Davrani bo'shatmay kaptar o'ynaydi,
Bizga boqib jumla jahon to'ymaydi,
Yomg'ir gulkosada ulashar chog'ir!..

Muhabbat qalbimni chimchilab qo'ydi...

HAYALLASH

Yo'llar oyog'imni kesdi – bormadim,
Yillar qarog'imni to'sdi – bormadim,
Bunda na soyam bor, na hamsoyam bor,
Na taomda maza, yemakda ta'm bor.
Ota, sog'indim-u sizni, bormadim!

Nom topmoqqa kelib, non ham topmadim,
Xayr-u ma'zur qilib ketdi omadim.
Orzum bir havolab quladi pastga,
Kim baralla, kimdir kuladi asta,
Yer o'psam o'pdimki, oyoq o'pmadim!

Ota, siz o'ylamang, ishim sal og'ir:
Oqim-la tersroqman, chaqin-la ahil.
Bir kun kech bo'lsa-da aytar so'zim bor,
Suvga tushgan qumday ketmasman zinhor,
Men bilan kelgan-ku Urgutning tog'i!

* * *

Ona, men behuda yashashdan toldim,
Tushunolmay qoldim o'zim-o'zimga.
Buyuk o'ylar ko'chki ostida qoldi...
Daryoga yetolmay quridi jilg'a!

Ona, olov edim, gijing toy edim,
Kuydirmay qo'ymasdim tekkan joyimni.
Otim ravon bilgan yo'lda toyidi,
Puflab ichadigan bo'ldim choyimni.

Ona, men cho'qqini olgandim mo'ljal,
Tepa borki, bilsam, egalik ekan.
Burgut qumursqa-yu qurtlarga o'lja,
O'laksaxo'r larga kun tuqqan, nega?

Qo'rqoq o'sibdi deb sira o'ylama,
Ona, bolang faqat sal boshqacharoq.
Tanam yayrab ketar yesam do'lana,
Kazzobga bo'lgandan ko'ra hamtovoq!

Ha, endi, bularni aytdim-qo'ydim-da,
Alahsirab dedi bolam, deb bilgin!
Puch yong'oq solmayman endi qo'ynimga,
Qoshingdan bir qadam jilgim yo'q, jilgim!

Muhabbat qalbimni chimchilab qo'ydi...

O'ZINGDAN BOSHQAGA

To'ygach, yengil-yelpi hayot kechirdim:
Bir kosada mo-yu,
bir ko'zada may.
Oldimdan oqqan suv, meni kechirgin,
Men yoshlik qilibman seni payqamay!

Yiqilsam, yelkamga tegmadi bir qo'l,
Butkul sovib ketdim dunyolaridan.
Berk ko'chada qolib topolmadim yo'l,
Panoh topdim otam duolaridan!

Do'st yo'qmas, aslida haddan edi ko'p,
Avjimda hammasi sodiqlik qildi.
Yiqildim, sanasam, ulardamas ayb,
Faqat... barmoqlarim ortiqlik qildi!..

Omaddan bilibman baxt kelsa doim,
Sendan ne'matligin nahot bilmadim!
Bosh tegib, boshimni urdim, Xudoyim,
O'zingdan boshqaga muhtoj qilmagin!..

OZINGDAN BOSHQAGA

Xunobman tark eta olmay odatni,
Til - bosh yorig'iga qadalgan pona.
Sizdan o'tgan bo'lsa o'tgandir balki,
Jonimni avaylay bilmayman, ona!

Tuxumdan chiqqanlar ko'kka havolar,
Sinishadi ko'ngli siniqlar yana.
Men kim bo'libmanki, ko'pga havola,
O'ylasam, ko'zlarim tiniqar, ona!

Shahar havosiga ko'nikdim, ammo
Bitta sinovidan o'tolmay dog'man.
Men g'irt shaharlikman, bir shart bor, tamom,
Loqayd yasasam bas o'zimdan tug'ma!

Bunda tanish-bilish o'ynar yo'liga,
Sizda fidoyilik ko'raman, ota!
O'ylab bosh qashisam, shundoq bo'l ekan -
Qishloqda inson-u, shaharda odam...

Ha, endi, bularni ayt'dim-qo'yduu-da,
Alahsirab dedi bolam, deb kilgin!
Puch-yong'oq solmayman endi qo'yninga,
Qoshingdan bir qadam jilgim yo'q, jilgim!

* * *

Mening uchun quyosh hech kimmas,
Hatto tog'lar g'o'ddaysa bir pul.
Isyon o'ti bir ko'ksimnimas,
Ko'z o'ngimni qamradi butkul!

Kun og'ib, qo'nadi patiarimga qor;
Yurak tubi vulqon o'chog'i,
Tomirimda lava oqadi.
Fe'lim Oyga yoqibdi chog'i,
Rost-da, nuqul menga boqadi...

Kun tepamda qovushtirar qo'l,
Chopqir shamol – minganim saman.
Bir tug'ildim, ortga qaytish yo'q,
Shunday mag'rur yashab o'taman!..

BURGUT MONOLOGI

Xun Meni baland tog'lar uchirma qilgan,
 Til Ushoqning dardida yurgan qushmasman.
 Siz Taqdirimda ovchi bo'lish bitilgan,
 Joni Tayyor o'laksaga sira uchmasman.

Tux Quyoshga tik boqib ulg'aydim, shundan
 Sini Yerdagi jimitday jon ham namoyon.
 Met Qildim gadotopmas cho'qqini kulba,
 O'yil Qumursqadan xoli topay deb oshyon.

Xonaki kaptarday o'ynoqilik yot,
 Uchsam, qanotimni yozaman vazmin.
 Menga yengil-yelpi narsamas hayot,
 Aslimga mos yashash – yurakning izmi.

Shom kirdi deguncha daraxtda g'uujg'on,
 G'iybatchi mayna – qush nomiga isnod.
 Pingvin o'zligidan kechgani hamon
 Surgun qilgan shimol tomonga qismat.

Men esa yuksakka intildim, zora,
 balandroq yashashni uqsa deb qavmim.
 Yerning tortish kuchin yengmoq bahona
 Biram xush yoqadi hurlikning ta'mi.

O'zi uchmaydi-yu, uchsa ko'rolmas,
 Qashqirlar tish qayrab turibdi yerda.

Po'lat tirnog'im-la ko'taraman dast,
Yirtib ulgurolmas ular kekirdak.

Nigohimga ko'char tog'lardan viqor,
Vaqt bilan basma-bas kelmoq bo'lamан.
Kun og'ib, qo'nadi patlarimga qor,
Fursat yetganini o'zim bilaman.

Burgut o'limini kutar qushmas, o!
Qartayganin sezsa tirnog'i sinib,
Bori deb o'laksa titmaydi aslo -
Mardlarcha qoyaga urar o'zini!



Men bog'i basovini ospsa noylamaн,
Yosg'ilbasu po'sisuvan: "Givusilip ketdint."
Yewmagan sonisizmaga dovan to'jalyusun,
Dekutun: bichqod poqid zulaskes astib.

Burgut qaynligimasi tibqoqim, xal;

Ons, pa possguli uims liu mudi.

Go'a podip amari! nst-posgi basq'il;

Suvi docqbasu bonni fo'siga smit.

ONAMGA MAKTUB

Qochmoqqa ustaydim, negadir pand yeb,
 Bugun vijdonimga tutildim, Ona!
 Umrimning yarmini shaharga berib,
 Bir maktub yozmabman barmog'im qonab!

Shuncha kutgandirsan, sezdirmay menga,
 Xudoning kuni to'y, oyog'ing tortmay.
 Men esa sang'ibman quriblar tinkam,
 Bir enlik qog'ozmas, farosat topmay.

Mana, xat yozyapman birinchi marta (!)
 (Ishqiy nomalarim garchi sanoqsiz),
 Ko'pam mahtal bo'lma dilingni o'rtab,
 Ochqasang shohona taom bor – qurtob¹,
 (Necha kunlab o'choq turgandir cho'g'siz!)


Men yog'li palovni oshab noliyman,
 Yozg'irgan bo'laman: "Qiynalib ketdim".
 Yemagan somsamga dovur to'layman,
 Deyman: pichoq borib suyakka yetdi.

Buncha yengilmassi tuprog'lm, axir,
 Ona, bu bolangni nima jin urdi.
 Qo'y boqib yurardi ust-boshi yag'ir,
 Suvi qochgan nonni ko'ziga surtib.

¹ **Qurtob** – qurutni suvda ezib tayyorlanadigan taom.

Ona, suvarakka qoldirmay tanim,
 Eltaman qadrdon chumolilarga.
 Yo'ng'ichqa ekilgan dala – vatanim,
 Hech yo'q beda isi xumor qilar-da!

Qochmoqqa ustaydim, negadir pand yeb,
 Bugun vijdonimga tutildim, Ona!..



AKTYOR

Hayotda tegmadi menga o'z rolim,

O'zgalar ijrosi tushdi chekimga.

G'urur baland ketdi,

Past keldi qo'lim,

Yurak yozolmadim, netay, hech kimga!

Birov sodda bildi, birov to'pori,

Birov noshud dedi yuzimga shartta.

Bir hovuch his edi o'zimda bori,

Dilim oshno edi sog'inch-u dardga.

Tili bilan yurib yengdi odamlar,

Gap-so'zlar qo'yamadi hol-u jonimga.

Qolgan-qutgan barcha tuyg'uni jamlab,

Mahkam tugib qo'ydim jomadonimga.

Keyin... niqob taqdim yuzga hammabop,

El ko'zicha davron surdim baxtiyor.

Eshaklar ichinda bo'ldim davrabop,

Chog'irlar bazmini qildim ixtiyor.

Shunda ham benasib qolmadim, yo rab!

Nigohlar yonardi endi hasaddan.

Na qo'yib berishar yashashga yayrab,

Na lazzat topishga sog'inch-u darddan.

... Hayotda tegmadi menga o'z rolim,
O'zgalar ijrosi tushdi chekimga.
Boshim to'qmoq bo'ldi va so'qmoq yo'lim,
Attang, butun umrim chiqdi chiqimga!

Shig'il mevali his obzor qurilari

Qaqragan tabiatiga qiziqar asta:
"G'oddan" qiziqar asta:
Nomiga g'oz qiziqar asta:
Axir manzarag' eklig' qiziqar asta:



Men ifor tarayg' qiziqar asta:
Shoyad bir ko'z qiziqar asta:
El og'ziga yoddaq qiziqar asta:
Yo'qsa, shuncha nosi chiroq ketgaydir!"

O'spidisi son minlas,
Menqay qili kim dirmis,
Yurim dospidi jomis,
To'abyurissa po'jistidi!

Izifidilim-o-tun icqini,
Yonid salstam soq'inchini,
Ne desaysat mayli,
Im o'titunissa po'jistidi!

Oppo, dixi tuzimsem,
Kuylayunissa po'jistidi!

* * *

Obbo, qizi tushmagur
 Kuydirmasa bo'lardi!
 Jilla qursa qoshini
 Uydirmasa bo'lardi...
 Past keldi qo'lim,
 Yurak yozo Tuya berdim: ko'nmadi,
 Biya berdim: ko'nmadi,
 Birov soda Suyaverdim: ko'nmadi,
 Birov nosh Suydirmasa bo'lardi!
 Bir hovuch his ed o'zimda bori,
 Voy, bunchalar zolim-ey,
 Yomon bo'ldi holim-ey:
 Shu yasama xolini
 Qo'ydirmasa bo'lardi!
 Oshiqlari son mingta,
 Menday dili kim nimta,
 Yarim qoshiq jonimga
 To'ydirmasa bo'lardi!
 Ishqqa limmo-lim ichim,
 Yonib aytSAM sog'inchim,
 Ne desayam mayli,
 Jim o'ltirmasa bo'lardi!
 Na qo'yib Obbo, qizi tushmagur
 Na lazzat to'lib Kuydirmasa bo'lardi!...

YOZ GULI

Yozda gullab turmoq og'ir, atirgul,
Tepangda quyoshning tig'i yaraqlar.
Tag'in sen sho'rlikka iddao bilan
Shig'il meva tugib tursa daraxtlar.

Qaqragan lablaring pichirlar asta:
"G'o'ddaygan og'ochlar, ustimdan kulmang,
Nomiga gullolmam hosil ishqida,
Axir manzaraga ekilgan gulman!"

Men ifor taratay a'molimga mos,
Shoyad bir ko'z quvnab Haqqa hamd aytur.
El og'ziga yoqsa mevangiz-ku, soz,
Yo'qsa, shuncha hosil chirib ketgaydir!"

* * *

Shiddatli tus oldi zamон.

Talвasa.

Odamzod xavotir iskanjasida.

Uy qurar, to'y qilar, yana o'lmasa

Ulgurishi lozim, eh, qanchasiga...

O'g'lim, meni kechir, senga qasrmas

Komil tarbiyangga poydevor qurdim.

Mol-davlat deb labga kesakni surtma,

Ne yetsin beminnat suvga bir qultum!

Hammaday yasha-yu, illo, o'ylama,

Dunyoni kengroq ko'r, o'zingni tani.

Bastingni ko'rsat-u poyga o'ynama,

Ko'p og'ir imkon boy bermoq sitami!

O'g'lim, tashvishlarga bo'l imagin tutqun,

Lazzat top hayotdan, tafakkurni och.

Birov yer talashsa, qo'shqo'llab tutgin,

Kengroq bo'l, osmonga yozaver quloch!

Qorning och bo'lsa-da, nazarni to'q tut,

Pastkashni do'st bilma, pand bermog'i bor.

So'rasang, Xudodan so'ragin subut,

Egilsang, toyganni turg'azib yubor!

Zamon shiddat oldi, ogoh bo'l, o'g'lim,
 Odamzod vahima iskanjasida...
 O'zingni yengmoqdir kurashmoq yo'li,
 Jihod – nafsga urush ochish aslida!

ANTIQA TAKLIF

Yo'latmadim senga hech kimni,
 Yo'ling poylab navolar qildim.
 Sen beparvo ketding, ishqimni
 Xudoyimga havola qildim.

Yuz ifodang o'zgarmadi hech,
 Seni qancha kutdim-a, axir!
 Men ketyapman.
 Qursin-a bu es,

Jilmayishni o'rgansang chaqir!..

Menga juda xiziq qoldim,
 Lekin o'taxxal qoldim,
 Aridga suna oqsi spashobob, shaxsida,
 Ovaxi mazilliyatda yutkaz qasriga!

Ortiq hijroningga berolmayman dosh!
Azizam, paysalga buncha solmasang.
Qancha yurtlar kezib qaytdi qaldirg'och,
Bahor keldi...
Nahot, sen kelolmasang!..

Tongda tursam, o'rik gullabdi oppoq,
Ko'zim uzolmadim: na shod, na xafa.
Nechun sensizlikning nihoyasi yo'q,
Nechun shu pallada yo'qsan hamnafas!

Ko'm-ko'k bog'da tanho kezsam saharlar,
Har yon osig'liqday sening surating.
Jonimni chiqarib ko'kda kaptarlar
Oshiq-ma'shuq bo'lib chappar uradi.

Gullarga termulgan bo'laman, biroq
Qo'llarini bigiz qiladi tikan.
Ariqda suv oqar shaddod, sharqiroq,
Ovozi malhamday yurak dardiga!

Rayhonim, senda ham men zorni yo'qlab,
Dilingda ilingan gaplaring bormi?!
Bizga ham tatisin shu kun, shu ko'klam,
Kel, uvol qilmaylik shunday bahorni!..

HAZIL SHE'R

Gulim, qattiq sog'indim,
Qanchaligin bilmaysan.
Hush boshimda yo'q endi
Tushlarimda jilmaysang!

Tuni bilan o'y hamroh,
Kuni bilan kuy hamroh,
Seni mencha suygan yo'q,
Nega muncha qiynaysan?..

Kun o'tish qiyin biram,
Qon yutish qiyin biram,
Shundog'-u shirin biram,
Sog'inasan, to'ymaysan!

Uzilaman ko'z uzsang,
Menga juda azizsan,
Lekin o'ta xassisson:
O'ptirgani qo'ymaysan!..

OTA IZIDAN...

Taqdir, meni chorla qadam yetmagan,
 Hali toptalmagan so'qmoqlaringga.
 Jo'ra qil, bir lahza umr ko'rsa ham
 Ko'kka tomir yoygan chaqmoqlaringga.

Pishqiradi yurak asov tulpor day:
 Siqiq ko'ksim emas, keng maydon kerak.
 Mening-ku tog'larga ketgunim bor-da,
 Bolamga yeishi uchun non kerak!

Tengqurmas, hamfikr bilandir gashti
 Tatib yashamoqning, may tatmoqning ham.
 Umrkush tashvishni, do'stim, qo'y asti
 So'nggi burda nonim ko'ramiz baham.

Bu uzun yo'llarning poyoni ayon,
 Kim ko'lmaqday yashar, kimdir daryoday.
 O'z maylimcha yurib hordim judayam,
 Tabarruk yo'lingdan boshlagin, ota!

Menda savollar ko'p, senda xulosa,
 Garchi orim baland, shiddatim pastdir
 Faqat sobitlikni tila tilasang!
 Ota, hayot yo'ling men uchun dastur!

* * *

Bo'g'zimdagi jon ham ketib-ketmaydi,
 Ko'nglim ketganiga qo'lim yetmaydi.
 Xohla, bir silta-da qo'ling, ket, mayli,
 Yerdan bodrab chiqqan qo'ziqorinman!..

Oy bir o'zimga deb adashdim chog'i,
 Ko'ngilni el bilib adashdim yoki,
 Yurakni ham chiqdi toza pachog'i
 Ishq deb ado bo'lди o'zi borim ham!

Senga qolsa faqat jon olib kulsang,
 Ko'nglim senga, sen-chi, g'ururga qulsan,
 Jon sitib kuylagan, kuyganni bilsang,
 Avji bahorida sochi qor ingan...

Badarg'a qildi-ku husning aqlimni,
 Go'zallik zulmga nahot haqlimi?
 Dong'ing tutsa nima yetti iqlimni,
 Men ham savdoyiman ko'zga ko'ringan.

Biroq... bir tosh bag'rimni bosar,
 Sig'may borgum tor bu olamga.
 Nima bilan ko'nglimni yozay,
 Qamrab borar meni alanga.

Salqin shabadaga dilni belayman,

Yulduzlar tepamda kalovlanadi.

Xusumati borday qorong'u osmon

Ko'zimga bir to'da olov qamadi.


Yillardan ginam yo'q - keksa tilanchi...

Shundoq bor-budimni hadya qilaman.

Faqat...

O, mushtipar, yurak, seni-chi,

Bedana ovozing qayga ilaman?!



Bu uzun
Kim ko'lma
O'z maymuna
Tara

Menda savollar ko'p, senda xulosa,
Garchi orim baland, shiddatim pastdir
Faqat sobitlikni tila tilasang!
Ota, hayot yo'lling meni uchun dastur!

* * *

Dunyo g'ami bo'lib jamuljam

Bosdi ko'm-ko'k ko'ngil maysamni.

Sendan burun ketmoqchi bo'lsam,

Ona, mendan ranjimaysanmi?

Men tovlana olmadim, aslo

Buqalamun kabi har tusda.

Supurgiday yumshoq emasman,

Uchratmadim o'zimday nusxa!

Eplolmadim yolg'on kulishni,

Chin nafratni yashirolmadim.

Yaltoqlardan aftim burishdi,

Nohaqliknii ko'rsam, qonadim.

Birga yoqdim... mingga yoqmadim;

Rost so'zimga yo'qdir xaridor.

Aslo oqim bo'ylab oqmadim,

Vijdonimni ayladim tumor.

Biroq... bir tosh bag'rimni bosar,

Sig'may borgum tor bu olamga.

Nima bilan ko'nglimni yozay,

Qamrab borar meni alanga.

U meni kutadi uyg'a kirmasdan.

Bukilgani kamday durkun qomati,

Qovjirab qoladi axir birpasda.

Kel, validam!

Sening bir parchang

Yashamoqqa bugun bemajol.

Ketmoqqa shay, qaytarma harchand,

Navbatingni menga bera qol!

ILHOM OG'USHIDA...

Ilhom, ko'zlaridan o'pgim keladi,
Tafting vujudimda yonadi chindan.
Ko'zlarim ko'ksingda chang'i uchadi,
Sirpanib tushadi aql boshimdan...

Bahor atri quchar yurak qo'rimni,

Quyosh soya soldi tomirlarimga.

Oyning qulog'iga aytganlarimni

Yashirib qo'yaman yaralarimga!..

Cho'qqilar osmonga tutadi o'pich,

Shamol yulqib qochar yaproq sasini.

Tomir-tomirimda qaltiroq qo'pib,

Yutoqib ichaman she'r nafasini!

O'ZIMNI IZLAB

Yo'llarim bo'lindi yo'llarga.
 Men-chi, sarson bo'lib ketdim o'zimni izlab.
 Oldda tuman sonli tuman yo'l garchi,
 Rabbim, o'zing ravvo ko'rganga yuzlat!

Ko'kka chiqmoq bo'lib ufqqa jo'nadim,
 Osmon etak tutib aldadi meni.
 Kunlar kundosh bo'ldi.
 Tunlar tunadi.
 Bilib aldanganim g'alati mening.

Quyosh bo'g'izlandi har kun shafaqda
 Va har tong qaytadan bosh ko'tardi u.
 O'limni yengardi hayotni maqtab,
 Hayiqmay kundaga bosh tutardi u!

Osmon shivirladi:
 "Yurib netarsan,
 Bag'rimga uchib ham yetmassan aslo.
 Bir yo'l bor, so'zingda tuolsang qaysar,
 Qoshimga jismingni yechib kel, arslon".

Borardim – yalpizzdan dil uzolmadim,
 U meni kutadi uyga kirmasdan.
 Bukilgani kamday durkun qomati,
 Qovjirab qoladi axir birpasda.

Mayli, tarixlarda qolmasin ismim,
Yiroq osmon, qattiq zaminni netdim.
Yerga ruhim sig'mas, samoga jismim,
Ketdim, bor-budimcha tog'larga ketdim...

Xayolda kim otga minsa biladi,
 Hovliqib qoziqda qamchisi qolib.
 Shu alfozda ketdim, uy izilladi,
 Shovqinli shaharga tinchimni olib.

Kuygandim... Ko'nglimga qil sig'mas edi!
 Sevgilim yor etdi o'zgani, tona.
 Bo'g'zimga tiqilgan – qiltig'mas edi,
 Bir jonim qadalib qolgandi, Ona!

Do'ng-chuqurlar qildi toqatimni toq,
 Keyin yo'l izladim uzun va tekis.
 Undog'i yo'q ekan, lekin keyinroq,
 Yo'llarimni kesib chiqdi o'sha qiz.

Avval qayda edi boqmoqlik qiyo,
 Bu safar ko'ziga qarab qoldim tik.
 Jur'at oshibdimi, qilibdimi yo
 Tortgan azoblarim diydamni qattiq!

Sog'inch tuyg'ularim qilsa-da nash'a,
 Na uning qo'lidan tutmoqni bildim.
 Barmog'i uchidan kiprigigacha
 Ichidan qo'zg'algan titroqni bildim.

Aslida yerlikmas o'zi muhabbat,
Yerda yashash sharti, yerda umr bor.
Bunda ajrashamiz endi toabad,
Lekin yashagaysan dilda umrbod.

Sen o'zing qiynama, afv etaman,
Baxting soch taqdirning yo'lkalariga.
Olib ketmoqchiydim... o'zim ketaman
Samoviy sevgining o'lkalariga!..

SHARHSIZ UMR

Ko'zim qotdi. Tilim qotdi. Qo'lim qotdi.
O'zimni aldashga qolmadi hojat.
Yitdi ko'ksimda in qurgan xavotir,
Xashaki tut chiqdi men ekkan ko'chat!

Xayrixoh izladim: zarang yerdagi
Majnuntol bosh irg'ab qo'ydi ohista.
Oy menga javradi o'zin ertagin,
Soy menga "davom et" dedi oqishda.

Jo'yaliroq bilib soyning o'gitin,
Oqishga tutindim xiyla sharqiroq.
Men ovoz sozladim toshlar yiqitib,
Bori shu - umrimning bo'lak sharhi yo'q!

Kun kelib chorligan... ***
 Tikildim... ko'zimmas, teshildi yo'llar,
 Tunlar qattiq edi: yelkam ezardi.
 Ham seni unutib, yana biryo'la
 Sog'inaverardim juda betartib!

Ketding tashlab meni hijron qo'liga,
 Keyin qonga tashna kunlar boshlandi.
 O'stirdim suv sepib, ko'chang oldida
 Boshim yormoq uchun bo'liq toshlarni!

Bir kun oqar suvgaga termilib tursam,
 Bosh ko'tarib qoldi ichimda aql:
 "Mayli, yo'rig'imni ep bilmasang ham
 Xudo yuragingga solganini qil!"

Shungacha ishonib kelardim faqat,
 Sho'r bosib qolgan deb peshonam matni.
 Ichimdan so'radim tinmay, nihoyat,
 Xudo yuragimga soldi g'ayratni!..

Qanisan, ey sevgi, yo'llarimga chiq,
 Azza-bazza yurak tepgan mahali!
 O'zim shay, ko'z intiq, dil qulfi ochiq,
 Aslo o'ta ko'rma ko'chamdan nari!

Aslida yerlikmas **OTA UY** abbat,

Ey, chekka tumanning chet bir go'shasi,
Muncha quchog'ingga meni tortmasang.
Hapriqib ketadi yurak kechasi,
Yugur-yugurlardan kunduz ortmasam...

B Sen ota qo'rg'onim,
O Sen ona sutim.
SAzim shaharnimas, dil seni xohlar.
Siz sabab shaharda boshim tik tutdim,
Ey, mening qaddimni ko'targan tog'lar!

Yosh edim bolalik tasavvurimga
Ishtiyooq, hayratni solib qo'ygan – sen.
Bir quchoq kitobni tutib qo'limga,
Qalbimning tinchini olib qo'ygan – sen.

Bu ko'cha chang emas!
Bu uy kulgamas!
Shirin bolaligim xotirasidir.
Keng yo'l-u qasrga ko'ngil unamas,
Men uchun uylarning eng sarasidir!

Ota, ko'zlarimga boqma xavotir,
Uying chirog'ini so'ndirmayman hech!
Ota uy sog'inchi qalbimga jodir,
Bolamni shaharda qoldirmayman hech!

Kun kelib chorlaysan, bo'lsam ham qayda,
Shunda turajakman qoshingdan jilmay.
Sening bir parchangman: qaytgum, albatta,
Bir hovuch tuprog'im begona qilmay!

XIYONAT

Ko'rdim. Ishonmasdim agar aytsalar,
Siladim ko'ksimda turgan sanchiqni.
Poyimga suykalib yurgan maysalar
Chirik xazonlarni pichoqlab chiqdi.

Barchasi bo'ldi ko'z o'ngimda sodir,
Ketgim keldi boshim olib qirlarga.
Men sevgan, mehribon bilgan oftobim
Zulm qildi cho'kib qolgan qorlarga.

O'q yegan kiyikday atrofga boqdim,
Endi bir men uchun bayram, to'y, aza.
Ne qipti daraxtlar – o'tgan bahorning
Yiloshisи o'tmay turib gullasa!

KAPALAK

Jon kapalak,
 Odamlar ne desa desin,
 Kecha seni qurt ekaning ishonmasman.
 Qurtlar, ana, kemirmoqda tut ildizin,
 Sen ko'klamni bayram qilib nishonlaysan!

Balki rostdir.
 Ammo sening qalbing go'zal,
 Shu sababmi, qanot in'om etdi Xudo.
 Ichimiz bir: bizga gullar tutsa bo'sa,
 Cho'lpillatmay o'pib qo'ysak dudog'idan.

Shoming sezib qizg'anasan har lahzangni,
 Yonboshlab bir bermaysanmi joningga dam.
 Guldan gulga qo'nishdamas yashash ta'mi,
 Mingta kapang bo'lolmaydi bitta vatan!

Palagini toza sanab go'ng titganlar
 Bizdan so'rsin maysaning xush iforini.
 Xirom etgin!
 Men berilib aytay yalla.
 Bazmimizga yo'latmaymiz kiborini.

Gap so'qishar: "Umri bir kun kapalakning..."
 Bizga nima,
 Mastona raqs etsak bo'ldi.
 Qizig'i yo'q bizga qancha yashamakning,
 Zavqlansag-u, zavq ularshib ketsak bo'ldi.

MAKTUB

Borini bo'rttirib, qo'shib yo'g'ini
Hisga ko'mdim boshdan adoq xatimni:
"Tepamda Xudo bor, hali bir kuni
Ixtiro qilasan sadoqatimni!"

Tabassum ulashar homiy kulgiching,
Issiq jon, kun o'tar hadya olsam bas!
Bir jilmayib qo'ysang – tulorman gijing,
Qosh uysang – boshginam tizzamdan ham past.

Suyak surmasaydi Majnunlar ishqisi,
Kunora sevgimning bo'yin o'lchab tur.
Sen ham shu umringda bir savob ish qil,
Tog'day o'say, ohu ko'zingni choptir!

Bir deyar-demasim bog'lading-qo'yding,
Sen bilan kelsak-a qandoq bitimga?!
Men birga tunagan kiyikdan so'rgin –
Imon keltirasan sadoqatimga!"

SHAFTOLINING GULI

Shoshib keldim olisdan,
Qochib keldim olisdan.
Shaftolining gulini
Birrov ko'rib qolishga.

Ko'hlikkina gullaydi,
Cho'g'dekkina gullaydi.
Dunyosi bilan ishi
Yo'qdekkina gullaydi.

Lov-lov bo'lib yongan shu,
Es-hushimni olgan shu.
Yurakka cho'g' sachratib,
Shu ahvolga solgan – shu!

Oq gulladi sochlarim,
Dardim ochib-sochmadim.
Yuzim rangini olib,
Bo.yangani shoshmagan!

Shu gulga ishqim ketgan,
Ishq siriga kim yetgan.
Yotvolaman poyiga
Kulsa ham o'tgan-ketgan.

Gap so'qishar: "Urari bir kun kapalakning..."
Ko'hlikkina gullaydi,
Cho'g'dekkina gullaydi.
Dunyosi bilan ishi
Yo'qdekkina gullaydi.

* * *

Qon yig'ladi shafaq negadir...
Oltin qasr ayvonida jim.
Ufq ortida bo'zarib bir-bir
Cho'kib borar umid-sevinchim.

Mening bobolarim yoqningan kichik
Qon yig'ladi shafaq negadir...
Ufq bo'g'zida qolgan quyosh ham.
Ko'ngilga yon berdimi oxir,
Tirqiradi ko'zimda yosh ham.

Toptagan qor ingrur, boqaman heng in,
Qon yig'ladi shafaq negadir...
Kokillarin yular bittalab,
Qalbimni-da yulqib besabr
Eltib qo'yar zulmatga qadab.

Ruhni gamrab olur cora iskanja,
Qon yig'ladi shafaq negadir...
Juldur ko'ksi laxta-laxta qon.
Quyosh yordam so'rab cho'kadi,
Men og'zimga solaman tolqon!..

Ruhim uvvos solar, ko'zimda yosh yo'q;
Qayg'ish qiziq qiziq qiziq qiziq qiziq
Hejira uslibi engal qiziq qiziq qiziq
Eribet qiziq qiziq qiziq qiziq qiziq
Bilitsaym popomuning wadsisasi

Yot tibiod - Yot ekrar pedous tisti;
Hajj pliss opida - Bu mo'mak tushum:

HINDISTON TAASSUROTLARI

Hindiston – kuz hukmi o'tmas yurt ekan,
Bir sariq yaproqqa tushmadi ko'zim.
Yam-yashil dalalar bo'ylab yo'l ketgan,
Bu xalqqa yot balki "sahro", "cho'l" so'zi.

Bir g'atalat his chulg'ab oldi borimni –
O'zlikdan iftixor edi, aftidan,
Qaysidir bir paytlar bobolarimning
Ot surgan yo'lidan o'tib avtoda.

Tarixni tahrirlab bo'lmas, bu – ayon,
Yozg'irishdan naf yo'q, Yaratgan hukmi.
Siylovmi, jazomi, ko'rdi U ravo
Boburga shohlik va musofirlilikni!

Bag'ringga sig'saydi o'z o'g'ling, elim,
Biriksang g'animlar chang solgan mahal.
Bobur oh tortmasdi bu yurtga kelib,
Samarqandni bezar edi Tojmahal!

Topsang o'z yeringda qadr top, toki
Toj ham malham bo'lmas dil yarasiga.
Duo o'qiy desam, nom yo'q hattoki
Bittayam bobomning maqbarasiga!

Yot tuproq – yot ekan, begona tafti,
Har bitta obida – bu mo'may tushum:

E'zozmas, qabrlar saqlanayapti
Dunyo hayratidan pul topish uchun!

O'zga yurtni bunday kim etmish obod,
Ajdoding bosqinchi dema, muttaham!
Mening bobolarim yoqmagan kitob,
Mo'jiza yaratgan o'zga yurtda ham!

* * *

Toptalgan qor ingrар, boqaman horg'in,
Nurli cho'qqilarga ko'zim yetmaydi.
Yulduzni bittalab terishim mumkin,
Taqdir yoqasiga qo'lim yetmaydi...

Ruhni qamrab olur qora iskanja,
Yo'rgakda bo'g'ildi asrandi umid.
Qalbimga o'rmalar tun sekin-asta,
Ko'zi tuproq to'lган tashlandiq muhit.

Ruhim uvvos solar, ko'zimda yosh yo'q:
Qayg'u qori yoqqan qalbim muzladi.
Hasrat quyoshiga qatra bardosh yo'q,
Erib ketayapman qor parcha kabi...

So'ng jimaqat qolmagan hitta so'ziyam!

PARCHALANGAN ODAM

U tog'larga yondosh tug'ildi,
Kasri urib ulg'aydi vazmin.
Bilolmadi – ne o'yin-kulgu,
Xushlolmadi to'da-bazmni.

Faqat ochdi dalalarga dil,
Yalpizlarni achenlab o'sdi.
Bir kun ichi achimay taqdir
Tomir otgan daladan uzdi.

Uloqdi-yu uzoqdan-uzoq,
Toshloqzorda ko'rdi o'zini.
Azob yedi, unutolmay, oh,
Yo'ng'ichqani, qo'y-u qo'zini.

Yashash – hukm. Boshqa hech nima,
O'zi yondi, o'chdi, bo'g'ildi.
Ko'ngli chopib turgan ishnimas,
Qilish lozim bo'lganni qildi.

Yulduzlarga termuldi ammo,
Ucholmadi xurjunni tashlab.
Yerto'lsasi to'la sharbat-u,
Qalbi esa o'lguday tashna.

O'tiribdi hozir ham xomush,
 Kuldirmoqchi bo'lar ayoli.
 Jujuqlari qiyqirishar xush,
 Uning esa tarqoq xayoli.

U ham asli baxtning gadosi,
 Xurramlikni istaydi biram.
 Balki baxti, balki xatosi,
 Tutgan yo'li anglanmas sira.

Eslolmaydi kulganin qachon,
 Shu top, chunon bo'g'riqqan afti.
 Burch tuyg'usi sabab chalajon
 Istaklari dod solayapti.

ALLA

Bir so'z izlab meni sarsonim chiqdi,
 Og'riq bilan baxtni anglatar so'zni.
 Esladim so'ng onam aytgan qo'shiqni,
 Esladim... har kecha uyqumni buzdi.

Murg'ak tasavvurga payvast uchunmi,
 Biram xush yoqadi jonga o'ziyam.
 So'ng jimi-ib qolaman, qo'shiqni, chunki,
 Yodimda qolmagan bitta so'ziyam!

Hayot, meni jangda toblantir,
Yovqur ruhim kurashmoqqa shay.
Bitta mard ber, bitta maydon ber –
Xumorimdan chiqib olishay!

Faqat bexos chohga irg'itma,
Pistirmadan o'qqa tutmagin.
Ortdan yegan tig' o'rni bitmas,
Ko'ksimga ur pichoq, qutlagum!

Ravo ko'rgin eng zo'r raqibni,
Faxrlanay dushmanim bilan.
Sochmasin-u ko'zimga qumni,
Mard olishsin: bilakma-bilak!

Tosh otmasin panadan turib,
Bekinvolib boshni yormasin.
Yaxshisi, chang solsin quturib,
Ko'krak kerib jangga chorlasin.

Yengsa, shartta olsin jonimni,
Gar chalajon qo'ysa hisobmas.
Yer tishlasam, mayli, g'animing
Ko'zlarini ko'rsam, azobmas!

Yoz gul...
"Shiddati tus oldi zashin..."

An Ishq, avvalo, kechishdir jondan
Va yana olov-u suvlar kechishdir.
So'ng esa uyqudan turib azonda
Yoring ko'chasini izlab ketishdir!..

Yo'l qarab, gul qarab tolmaydi ko'zing,
Ortidan bir qadam qolmaydi ko'zing,
U-chi?.. Bir nazar ham solmaydi,
O'zing amallab yuziga termul, kelishtir...

Tun uzun, xun o'zim: tong otsa, qani!
Yorim toshko'chamdan bir o'tsa, qani!
Labimni kuydirsa edi dahani...
Ishqning eng lazzatli oni kutishdir!..

Termulsam yorimning ruxsoriga mast!
Hech qudrat sevgiday kuchga egamas,
Chin sevish – bir yorning visoligamas,
Yaratgan vasliga, Haqqa yetishdir!..

MUNDARIJA

Qo'chqor Norqobil.

O'zingizga ishoning!	3
"Zavqlan umrning har lahzalaridan..."	5
Hozirlanish.....	6
Hayvonot bog'ida.....	7
"Oshiq odam uzolmaydi gul..."	8
Yo'lovchi.....	9
"Ona, ishon menga..."	10
Lola.....	11
Xonqizi.....	12
"Bugun so'nggikuninyashamoqdakuz..."	13
Shifoxonada.....	14
Oshiq.....	15
Uydan qaytish.....	16
"Bo'lganim shu - tog'likman..."	17
Bahor yomg'iri.....	18
"Qalbim ishqqa ochiq..."	19
"Qo'shga soldi dunyo bizni, do'st!"	20
"Bir nuqtada to'xtamas hayot..."	21
"Muhabbat qalbimni chimchilab qo'ydi..."	22
Hayallah.....	23
"Ona, men behuda yashashdan toldim..."	24
O'zingdan boshqaga.....	25
"Xunobman tark eta olmay odatni..."	26
"Mening uchun quyosh hech kimmas..."	27
Burgut monologi.....	28
Onamga maktub.....	30
Aktyor.....	32
"Obbo, qizi tushmagur..."	34

Yoz guli.....	35
"Shiddatli tus oldi zamon..."	36
Antiqa taklif.....	37
"Ortiq hijroningga berolmayman dosh!".....	38
Hazil she'r.....	39
Ota izidan.....	40
"Bo'g'zimdag'i jon ham ketib-ketmaydi..."	41
"Salqin shabadaga dilni belayman..."	42
"Dunyo g'ami bo'lib jamuljam..."	43
Ilhom og'ushida.....	44
O'zimni izlab.....	45
"Xayolda kim otga mins'a biladi..."	47
Sharhsiz umr.....	48
"Tikildim... Ko'zimmas, teshildi yo'llar..."	49
Ota uy.....	50
Xiyonat.....	51
Kapalak.....	52
Maktub.....	53
Shaftolining guli.....	54
"Qonyig'ladi shafaq negadir..."	55
Hindiston taassurotlari.....	56
"Toptalgan qor ingrар, boqaman horg'in..."	57
Parchalangan odam.....	58
Alla.....	59
"Hayot, meni jangda toblantir..."	60
"Ishq, avvalo, kechishdir jondan..."	61

UO'K: 821.512.133-1 (081)

KBK: 83.3(50'zb)

T 91

T 91 Tursunov, Akmal.

Burgutqoya [matn]: *she'rlar* / A. Tursunov.

– Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. – 64 b.

Adabiy-badiiy nashr

Akmal TURSUNOV

BURGUTQOYA

She'rlar

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *N. Soatov*

Musahhih: *Sh. Hakimova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

📞 (98) 128-30-04. e-mail: mashkhur-press@mail.ru

Bosishga 20.11.2020-yilda ruxsat etildi:


Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 $\frac{1}{32}$.


Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2.0.

Adadi: 10000 nusxa. Buyurtma №342.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.





Akmal Tursunov 1988-yil 1-mayda Samarqand viloyati Urgut shahrida tug'ilgan. 1999-yil Urgutdag'i "Iqbol" litseyiga qabul qilingan. Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida bakalavr va magistr bo'yicha tahsil olgan. Ijod namunalari matbuotda e'lon qilib boriladi.

AKMAL TURSUNOV

BURGUTQOYA

"ADABIYOT"
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6472-9-9



9 789943 647299